



## SHARTNOMA TUZISH TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Xashimov Ravshan Rayimjonovich

Farg'ona viloyat yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası  
yetakchi o'qituvchisi, 3-darajali yurist

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada shartnoma tushunchasi, shartnomalarning bugungi bozor iqtisodiy sharoitidagi ahamiyati, shartnoma tuzish tartibi va shartnomaning muhim elementlari tog'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Fuqarolik huquq va majburiyatlar, shartnoma, yuridik faktlar, oferta, aksept, shartnomaning muhim shartlari, tasodifiy shartlar, shartnoma tuzish erkinligi, aralash shartnoma.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о понятии договора, значении договоров в сегодняшних рыночных экономических условиях, порядке заключения договора и важных элементах договора.

**Ключевые слова:** Гражданские права и обязанности, договор, юридические факты, оферта, акцепт, существенные условия договора, случайные условия, свобода заключения договора, смешанный договор.

**Abstract:** This article provides information on the concept of a contract, the importance of contracts in today's market economic conditions, the procedure for concluding a contract and on the mountain of important elements of the contract.

**Keywords:** Civil rights and obligations, contract, legal facts, offer, accent, important terms of the contract, casual terms, freedom of contract, mixed contract.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi huquq va majburiatlarning vujudga kelishi muayyan voqeа yoki hodisaga asoslanadi. Bunday voqeа va hodisalar esa fuqarolik huquqida yuridik faktlar deb nomlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8-moddasida ana shunday yuridik faktlarning turlari sanab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, fuqarolik huquq va burchlari qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan vujudga keladi. Shartnoma va uning tuzilishi yuridik fakt sifatida fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish asosi hisoblanadi.

Shartnoma tuzish bu, avvalo, taraflar xohish-irodasining ifodasi sanaladi. Shartnoma tuzish yo'li bilan esa ikki yoki undan ortiq taraf fuqarolik huquqlari va



burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqida kelishadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi tuzish orqali sotuvchida tovar haqini talab qilish huquqi vujudga kelishi bilan birga, mazkur tovarga nisbatan undagi mulk huquqi bekor bo'ladi va, aksincha, sotib oluvchida tovarga nisbatan mulk huquqi vujudga kelishi barobarida, tovar haqi uchun to`langan pulga nisbatan huquqi bekor bo'ladi.

Yuridik fakt sifatida shartnomasi tuzish jarayoni taraflarning o`z xohish-irodasini ifodalashi va ularning istaklari mos kelishida namoyon bo`ladi va bu holat shartnomasi konstruksiyasining mohiyatidan, ya`ni ikki tarafning kelishuvi ekanidan anglashiladi. Qonun chiqaruvchi tomonidan shartnomasi tuzishning ikki holati ajratilgan va ularning har biri uchun alohida rejim belgilangan. Bu ikki holat "hozir bo`lganlar" o`rtasida va "hozir bo`lmaganlar"<sup>1</sup> o`rtasida shartnomasi tuzishda ifodalanadi. Ikkala variantda ham shartnomasi tuzishga taklif (oferta) va uning qabul qilinishi (aksept) ketma-ket yuzaga keladi va o`zaro birlashib ketmaydi.

"Hozir bo`lmaganlar" o`rtasida shartnomasi tuzish uchun alohida rejimning zarurati shundaki, bu vaziyatda birinchi tarafning xohish-istagini ifodalash vaqtiga uni ikkinchi taraf qabul qilish vaqtiga o`rtasida farq mavjud bo`ladi. Bundan farqli ravishda "hozir bo`lganlar" o`rtasida shartnomasi tuzishda esa bunday vaqt bo`yicha farq mavjud bo`lmaydi va taraflar o`zaro shartnomasi tuzish jarayonida muloqot qiladilar. Masalan, bir tarafning tovarlar etkazib berish shartnomasini tuzish haqidagi taklifi shartnomasi loyihasi shaklida boshqa tarafga yuborilgan taqdirda, ikkinchi taraf shartnomani boshqa shartlarda tuzishga rozi bo`lsa, loyihami oiganidan so`ng kechi bilan o`ttiz kun ichida kelishmovchiliklar bayonnomasini tuzadi va uni imzolangan shartnomasi bilan qaytaradi, kelishmovchiliklar bayonnomasini oigan taraf o`ttiz kunlik muddatda shartnomasi shartlarini kelishish choralarini ko`rishi (imkoniyat bo`lsa, boshqa taraf bilan birgalikda) yoki shartnomasi tuzishni rad etishini boshqa tarafga yozma ravishda bildirishi lozim (FK, 439-modda birinchi qism). "Hozir bo`lganlar" o`rtasida shartnomasi tuzishga misol sifatida qarz shartnomasini keltirish mumkin. Chunki qarz shartnomasida qarz beruvchi pul summasini qarz oluvchiga topshirmagunicha shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bir-biri uzoq masofada bo`lgan shaxslar o`rtasida shartnomasi tuzish bo`yicha muloqotlarni bevosita amalga oshirish imkonini yuzaga keltirmoqda. Bunday muloqotlarni "hozir

<sup>1</sup> "Hozir bo`lganlar" deganda shartnomasi tuzish jarayonida ikkala taraf ham yuzma-yuz muloqot qilgan holda to`g`ridan to`g`ri shartnomasi tuzish jarayonida shaxsan yoki vakillari orqali ishtiroy etishlari tushuniladi va, odatda, bu holat tuzilishi bilan ijro etiladigan shartnomalarda ko`p uchraydi. "Hozir bo`lmaganlar"da esa bir tarafning taklifi ikkinchi tarafga yuboriladi va taklifni oigan ikkinchi taraf uni ko`rib chiqib, keyinchalik shartnomasi tuzishga rozi bo`ladi yoki buni rad etadi.



bo`lganlar” o`rtasida shartnoma tuzishga tenglashtirish mumkin, agar shartnoma tuzish bo`yicha o`z erkini bildirish kontragentlardan biri tomonidan boshqa muddatga qoldirsa, unda bu jarayon “hozir bo`lmaganlar” o`rtasida shartnoma tuzish rejimiga o`tib ketadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanib shartnoma tuzish mumkinligi qoidasi FKning 366-moddasida o`zi ifodasini topgan. Bunda yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo`li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo`li bilan tuzilishi mumkin.

Shartnoma tuzish deganda, taraflar o`rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilishi tushuniladi. Shartnoma tuzish jarayonida mazkur turdagи shartnomalar uchun muhim hisoblangan shartlar kelishib olinishi lozim. Muhim shartlarni uch toifaga ajratish mumkin:

- 1) shartnomaning narsasi to`g`risidagi shartlar;
  - 2) qonun hujjalarda bunday turdagи shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar;
  - 3) shuningdek taraflardan birining arizasiga ko`ra kelishib olinishi zarur bo`lgan hamma shartlar muhim shartlar hisoblanadi.

Shartnomaning narsasi – bu taraflarning huquq va majburiyatlari qaratilgan hamda shartnoma tuzishdan ko`zlangan maqsad tushuniladi. Odatda, shartnomaning narsasi fuqarolik huquqlari ob'ektlari sifatida talqin etilishi mumkin. Fuqarolik huquqlarining ob'ektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog`ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtiolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi. Bunda fuqarolik huquqi ob'ekti bo`lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar shartnoma narsasi sifatida ko`riladi. Masalan, moddiy ne'matlar sifatida ko`char va ko`chmas mol-mulklar oldi-sotdi, hadya, renta, ijara shartnomalarining narsasi bo`lsa, fuqaroning hayoti va sog`lig`i sug`urta shartnomasining narsasi bo`lishi mumkin.

Shartnomaning narsasi to`g`risidagi shart sifatida inson faoliyatining turli yo`nalishi yoki kontragent foydasiga muayyan xatti-harakatni bajarish ham kiritilishi mumkin. Masalan, pudrat shartnomasining narsasi bajariladigan ish bo`lsa, haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasining narsasi ashyoviy shaklda bo`limgan xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalgalash) shartnomasining narsasi bo`lganligi haqiqiy shartnomasining narsasi bo`lganligi hisoblanadi.



oshirish), yo`lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomalarining narsasi esa tashish xizmatlarini ko`rsatish, litsenziya shartnomasining narsasi intellektual mulk ob'ektidan foydalanishga ruxsatnoma olish hisoblanadi.

Har qanday shartnoma tuzilayotganda dastlab uning narsasi kelishib olinishi va shartnoma yozma tuzilsa bu haqidagi shart shartnomaning matnida ifodalanishi lozim bo`ladi. SHartnoma narsasini belgilashda taraflar har bir shartnomaning maqsadi va xususiyatdan kelib chiqib, uni aniq ifodalashi lozim. Masalan, ko`chmas mulk sotish shartnomasida shartnoma narsasi bo`lgan ko`chmas mulkning nomi, uning joylashgan manzili va turi tegishli kadastr hujjatlari asosida aniq ifodalanadi.

Muhim shartlarning navbatdagi toifasiga qonun hujjatlarida bunday turdag'i shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar kiradi. Ayrim turdag'i shartnomalar uchun qonun hujjatlarida muhim shartlar alohida ajratib ko`rsatilgan. Masalan, FKning 853-moddasi “mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasining muhim shartlari” deb nomlanadi, unga ko`ra, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

shartnoma bo`yicha ishonchli boshqarishga beriladigan mol-mulk ro`yxati;  
foyda oluvchi to`g`risidagi ko`rsatma;  
ishonchli boshqaruvchining hisobotlar taqdim etish muddatlari;  
ishonchli boshqarish bekor qilingan taqdirda mol-mulkni oladigan shaxs;  
agar haq to`lash shartnomada nazarda tutilgan bo`lsa, ishonchli boshqaruvchiga to`lanadigan haqning miqdori va shakli.

Aynan shunday qoida FKning 929-moddasida sug`urta shartnomasiga nisbatan ham belgilangan. Unga ko`ra, mulkiy sug`urta shartnomasi tuzishda sug`urta qildiruvchi bilan sug`urtalovchi o`rtasida quyidagilar to`g`risida kelishuvga erishilishi lozim:

sug`urta ob'ekti bo`lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to`g`risida;

yuz berishi ehtimol tutilib sug`urta amalga oshirilayotgan voqeа (sug`urta hodisasi)ning xususiyati to`g`risida;

sug`urta puli miqdori to`g`risida;

sug`urta tovoni miqdorini aniqlash tartibi to`g`risida, agar shartnomada uni sug`urta pulidan oz miqdorda to`lash mumkinligi nazarda tutilgan bo`lsa;

sug`urta mukofotining miqdori va uni to`lash muddati (muddatlari) to`g`risida; shartnomaning amal qilish muddati to`g`risida.

Shaxsiy sug`urta shartnomasi tuzishda sug`urta qildiruvchi bilan sug`urtalovchi o`rtasida quyidagilar to`g`risida kelishuvga erishilishi lozim:



sug`urtalangan shaxs to`g`risida;

sug`urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug`urta amalga oshirilayotgan voqea (sug`urta hodisasi)ning xususiyati to`g`risida;

sug`urta puli miqdori to`g`risida;

sug`urta mukofotining miqdori va uni to`lash muddati (muddatlari) to`g`risida; shartnomaning amal qilish muddati to`g`risida.

Taraflardan birining arizasiga ko`ra kelishib olinishi zarur bo`lgan har qanday shart muhim shart sifatida e'tirof etiladi. Zero, shartnomaga taraflar erkini ifodalovchi hujjat hisoblanar ekan, unda albatta har bir taraf zarur deb hisoblagan holatlar kelishib olinishi lozim. Bunday shart esa shartnomaga uchun ahamiyati va mazmunidan qat'iy nazar, muhim shart sifatida shartnomada aks etishi talab etiladi. Masalan, mahsulot etkazib berish shartnomasida sotib oluvchi mahsulotni haftaning aynan qaysi kuni va kunning qaysi soatlarida etkazib berilishini kiritishni talab qilish va shu haqda sotuvchi bilan kelishishi mumkin. Mazkur holatda bunday shart mahsulot etkazib berish shartnomasining asosiy shartiga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . – T.: “Ўзбекистон” 2023.
  2. Baratov M.X. Davlat mulk huquqi. – T.: TDYUI, 2008. -B.320.  
Baratov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida davlat ishtirokining nazariy va amaliy muammolari: YUrid. fan. dokt. dis... avtoref. –T.: 2008. -B.48.
  3. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. –T.: TDYUI, 2009. -B.296.
  4. Imomov N. F. Intellektual mulk huquqi. –T.: 2012. -B.270.
  5. Imomov N. Fuqarolik huquqida muddatlar va da'vo muddati. Monografiya. –T.: TDYUI, 2005. -B.123.
  6. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. –T.: Vektor-press, 2010. -B.816.
  7. Nuriddinova SH. YUridik shaxslarning bekor bo'lish usullari. –T.: TDYUI. 2007. -B.80.
  8. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. –T.: TDYUI, 2004. -B.431.
  9. Raxmonqulov H. Bitimlar. –T. TDYUI, 2010. -B.122.
- 10. Электрон таълим ресурслари**
1. <http://www.lex.uz>
  2. <http://www.senat.uz>
  3. <http://www.parliament.gov.uz>
  4. <http://www.gov.uz>
  5. <http://www.ziyonet.uz>